

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA LIBOS KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TASNIFI

Xidirova Dilrabo Rasuljon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti, Lingvistika (ingliz tili) 2-kurs magistranti

Tursunova Shohsanam Botirjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti, Lingvistika (ingliz tili) 2-kurs magistranti

Khoshimova Nargis Abdullayevna

FarDu, ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri, PhD, dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada so'z birikmalarining tadqiqi, tilimizdagi frazeologiyaga oid masalalar, nutq, qo'llanish, qo'llanish doirasi, o'zbek va ingliz tillarida faol bo'lgan libos komponentli frazeologik birliklar yoritilgan*

Kalit so'zlar: *Frazeologizm, frazeologik birliklar, libosli komponentlar*

Ko'p yillar mobaynida bizning mamlakatimizda chet tillarini o'rganish tor doiradagi masala bo'lib kelayotgan edi, ammo bugungi globallashuv davriga kelib aholi o'rtasida nafaqat imkoniyatlar, balki bu bilan bir qatorda chet tillarini keng qatlamlar tomonidan o'rganish uchun ehtiyojlar ham paydo bo'ldi. Biroq, bu jarayon frazeologik burilishlar kabi lingvistik hodisaning mavjudligi bilan murakkablashadi. Shunga qaramay, frazeologik birliklar nutqni boyitadi, uni obrazli, jonli va ko'p qirrali qiladi. Ular odamlarning o'ziga xos madaniyatini, dunyoqarashi va dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini, qolaversa, ularning tarixini o'zlarida aks ettiradilar. "Frazeologik aylanma tarkibi va tuzilishi jihatidan barqaror, leksik jihatdan bo'linmaydigan va ma'no jihatidan ajralmas, alohida leksema (lug'aviy birlik) vazifasini bajaradigan ibora yoki jumla" [1. B288]. Frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, frazeologik birliklar asl kombinatsiyani yoki alohida so'zni qayta ko'rib chiqish va yangi ma'noni shakllantirish jarayonida paydo bo'ladigan ikkinchi darajali nominatsiyaning maxsus turi mahsuli sifatida qaraladi. Frazeologik birliklarning tarkibi hali hanuz tadqiqotchilarning eng dolzarb bahs markazida turgan masala sifatida muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Frazeologik birliklarning barqarorligi, ularning ekvivalentlarining tengligiga asoslanib, ba'zi olimlar, masalan, L. P. Smit, V. P. Jukov, V. N. Teliya, N.M.Shanskiy, A. Makkai, U. Vaynrayx frazeologik birliklar tarkibiga turli xil iboralarni: maqollar, aforizmlar, hikmatli so'zlar va boshqalar (V.V. Vinogradov, N.N. Amosova, A.M. Babkin, A.I. Smirnitkiy) frazeologizmga tegishli frazeologik birliklarinigina mazkur bo'limga xos deb hisoblaydilar. Aynan ushbu fikrlar farqlanishi frazeologik birliklarning tasniflanishida uchraydigan xilma-xillikni keltirib chiqaradi, ammo ularning hech biri maqbul emas. Har qanday tilda qadimiy va juda keng frazeologik birliklar qatlami mavjud (V.P.Shubinaning bergan statistikasiga qaraganda, u taxminan 15% ni tashkil etadi[2.b 81-89], R.M. Vayntraub bu ko'rsatkichni 30% gacha oshirgan), ayniqsa

bu tadqiqotchilarda, ularning - somatik frazeologik komponentlarning takrorlanish darajasi va funksional ahamiyatiga asoslanib katta qiziqish uyg'otadi. Frazeologik birliklarning tarjimasini ijodiy yondashishni talab qiladi. Frazeologik burilishlar o'zlarining "mentalitetiga" ega – ya'ni ularda milliy o'ziga xoslik jihati bo'lib, ularning o'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. Boshqa tomondan, to'liq o'zgartirilgan frazeologik birlik xalq tafakkuridagi mantiqni asl holatini aks ettirmaydi. Sapir-Vorfning leksik nisbiylik gipotezasiga muvofiq: "tilning tuzilishi - bu tafakkur strukturasi "belgisi" va ma'lum bir tilda so'zlashadigan 73 insonning atrofdagi dunyoni o'rganishdagi o'ziga xos uslubi". Shuning uchun frazeologik birliklarning tarjima qilayotganda ekvivalent, asosli frazeologik birlikka murojaat qilish yoki kontekstga mos keladigan o'xshashlikdan foydalanish tavsiya etiladi. Frazeologik lug'atlarning yaratilishi, unda frazeologik birliklarning rus tilidan ingliz tiliga va aksincha ekvivalenti tarjimasini ko'rsatilganligi tarjimon vazifasini ancha yengillashtiradi. Afsuski, iboraviy birliklarning aksariyati identifikatorga, ya'ni aynan o'zi bilan teng ma'noli ekvivalentga ega emas. Bu esa tilda neologizmlarning doimiy ravishda paydo bo'lishiga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa chet tilidan foydalanilgan paytda, so'zlovchi so'zlarning aniq tarjimasini bilishi, nutqini maksimal darajada tinglovchining sof nutqiga aylantirishi kerak. Bu borada frazeologiyani leksikologik, grammatik, uslubiy, fonetik, falsafiy, tarixiy, mantiqiy va mintaqaviy nuqtai nazardan bilish yordam beradi. Dunyoning istalgan tilida mavjud bo'lgan iboralarning boy qatlami nutqni har jihatdan betakror qilib bezaydi. Dunyodagi barcha xalq o'z turmush tarzini, urf-odatlarini, an'analarini va milliy-madaniy dunyoqarashini tom ma'noda o'z liboslari bilan ham ko'rsatib turadi. Keling biz ikki xalqning libos va kiyimlar orqali ifodalaydigan frazeologik birliklarni taqqoslab ko'rib chiqamiz. Oddiy bir bosh kiyimni misol qilib oladigan bo'lsak: o'zbeklarni bosh kiyimi do'ppi va bu kiyim bizning erkaklarimizni kuchlilik va oilaning boshi degan ma'noda tushuniladi. Ushbu bosh kiyimga doir ayrim frazeologik birliklarni uchratishimiz mumkin: "Do'ppisi tor keldi"- ishi yurishmadi degan ma'noda, "do'ppisini osmonga otdi"- baxtli, xursand yoki "do'ppini tagida odam bor"- bu yerda gapimizni kimdir poylayapti yoki begona bor degan ma'nolarni anglatadi. Ingliz xalqida esa "hat" yana shlyapa ularning milliy bosh kiyimi hisoblanadi va bu bilan bog'liq ko'pgina frazeomalarni uchratishimiz mumkin. Masalan, "talk through one's hat"- ahmoqona gapirish, tushunib-tushunmasdan so'zlash, "eat one's hat"-biror narsa bo'lishi mumkin emas yoki sodir bo'lishi mumkin emas, "keep something under your hat"- hech kimga biror narsani aytmaslik, sir saqlashlik kabi ma'nolarni anglatadi. Demak bosh kiyim odob-axloq ramzi hisoblanib, uni boshqacha shaklda, rangda va o'zgacha bezakli bo'lishi, o'sha xalq o'ziga xosligini bildirib turar ekan. O'zbek xalqida do'ppi frazeomasi yaratilgan bo'lsa inglizlarda esa ingliz ayol-u, erkaklarining shlyapa kiyishlari, ingliz tilida "hat" komponentli frazeomalarining dunyoga kelishiga turtki bo'ldi. "Farlex 105 Dictionary of Idioms" online lug'atida "Hat" komponentli idiomalarning 143tasi variantlari bilan keltirilgan. Masalan: ta'kidlab o'tkanimizdek, talk through one's hat

(s.s.: ahmoqona gapirish) – bekorchi gap gapirmoq; eat one's hat (s.s.: kimdir shlyapasini yemoq) – bu ish aniq bo'lmaydi! bo'lsa shlyapamni yeyman (qasam ichish); (one's) head is more than a hat rack (s.s.: kimnidir boshi shlyapa uchun tokcha bo'lishda ko'proq) – aqlli, keng fikrli; keep something under your hat (s.s.: nimanidir shlyapa ostida saqlang) – sir saqlamoq; hang on to your hat (s.s.: shlyapangizni ushlang) – kelayotgan surprizga tayyor turing; hat trick (s.s.: shlyapa fokuslari) – birdaniga 3ta g'alabaga ega bo'lmoq; hats off someone (s.s.: kim uchundir shlyapasini yechmoq) – kimnidir tabriklash, inglizlarning odati bo'yicha kimnidir qutlayotganda, shlyapani yechishi hurmatni bildiradi. Faqat ayollar kiyadigan shlyapa (bonnet) ham quyidagi “bee in one's bonnet” (s.s.: shlyapa ichidagi ari) iborasida “bitta fikr miyasida aylanaverish” ma'nosini beradi. Yoki ayollarning shim kiyishlar “wear the trousers” iborasini yaralishiga olib kelgan va u oilada boshliq bo'lish mazmunini anglatadi. Bizda esa shim bilan bog'liq ahmoqona gapirish ayrim frazeomalar ham uchrab turadi, masalan, “ishtoni yo'q tizzasi yirtiqqa kulibdi”- ya'ni bu farzeoma o'zining holi yomon bo'lsa ham birovni mazax qilishga ishlatiladi. Yoki “Ishtoningni boshingga kiyma”-sharmandachilik qilma degan ma'nolarni ifodalaydi. Ayollar yubkasi bilan bog'liq ayrim frazeologik birliklarni ingliz tilida uchratishimiz mumkin - to be in petticoat; petticoat government (s.s.: yubkali davlat) – ayol boshqaruvidagi davlat. G'arb milliy kiyimlarining ajralmas yana bir bo'lagi bu qo'lqoplar (gloves) sanaladi. Hozirgi kunda deyarli kiyilmasada, o'rta asrlarda ritserlar uchun himoya vazifasini o'tagan. Shu sababli “throw down the gauntlet” (s.s.: ritsar qo'lqopini otmoq) iborasi “kurashga chaqirmoq, musobaqaga undamoq” frazeologik ma'noni beradi. “Xushmuomalalik bilan” degan ma'no anglatuvchi “a kid gloves” iborasini so'zma so'z tarjima qilganimizda “echki bolasining terisidan qilingan qo'lqop”ni bildiradi. Misollarni davom ettirsak: a cat with gloves catch no mice (s.s.: qo'lqopli mushuk, sichqon tutolmaydi) – ba'zan g'amxo'rlik, muloyimlik bilan maqsadga erisholmaysiz; an iron fist in the velvet glove (s.s.: baxmal qo'lqoplardagi temir musht) - ko'rinishi muloyim bo'lgani bilan, ko'p kuch ishlatadigan inson; fit like a glove (s.s.: qo'lqopday tushmoq) – qolipga quyib qo'yganday; gloves are off (s.s.: qo'lqoplar yechildi) – qattiq jang bo'ladi. Kiyim aksessuari sifatida Yevropa xalqlari hayotida parik “wig” (suni'iy yasalgan soch bo'lib, avvallari oq suyak inglizlar kiygan bo'lsa, hozirda sudyalarning rasmiy kiyimi sanaladi) juda muhim hisoblangan. “Wig” komponentli bir nechta frazemalarga e'tibor qaratsak: a full-bottomed wig (s.s.: to'liq-yopiq parik) – parik turi; wigs on the green (s.s.: pariklar yashil rangda) - qizg'in bahs; blow one's wig (s.s.: parikni urmoq) - g'azabdan o'z hatti-harakatlarini nazoratini yo'qotish.[3.b104] Bu qarashlarga yana qo'shimchalar kiritishimiz mumkin. O'zbeklarning milliyligini ifodalovchi to'n erkalar libosi ham bir nechta frazeologik birliklarda ishlatiladi. “to'nini teskari kiyib oldi”- o'chakishmoq, “to'nini yechmoq”- jahli chiqmoq.

Quyidagi jadvalda o'zbek xalqining milliy kiyimlari va ular bilan bog'liq farzeomalarining ingliz tilida ekuvalentlik holatlarini ko'rib chiqamiz:

| O'zbek tili | Ingliz tili | | |
|---------------------------------------|--------------------------|-------------------------------|----------------------------|
| | To'liq ekivalent | Qisman ekivalent | Ekivalent 0 |
| Do'ppisini osmonga otmoq | | A feather in one's cap | To be very happy |
| Yeng shimarib | Roll up one's sleeves | | |
| Ishtoni yo'q tizzasi yirtiqqa kulibdi | | talk through one's hat | |
| Do'ppisi tor kelmoq | | | Not to dance something |
| Bo'z kiysang ham yarashtirib kiy | if the cap fits, wear it | | |
| Cho'pakka libos | | the shoe is on the other foot | |
| Er xotin urushi doka ro'mol qurishi | | | to lead a cat and dog life |

Xulosa

Ko'rib turganimizdek o'zbek tilida "libos" komponentlari bilan izohlangan frazeologik birliklarning barchasi ham ingliz tilida to'liq ekivalent bo'lmas ekan. Bunday iboralarni tarjima qilayotgan to'liq ekivalent yo'q bo'lsa ularni qisman yoki umuman ekivalentlik holati bo'lmagan frazeologik birliklardan foydalanish mumkin ekan. Oddiygina o'zbek tilidagi "Bo'z kiysa ham yarashtirib kiy" frazeologik birligini ingliz tilida biz to'liq ekivaenti uchratishimiz mumkin. Ya'ni "If the cap fits wear it" ushbu frazeoma ham nima kiysa ham yarashtirib kiyish haqida boradi. Yoki o'zbek tilidagi "er-xotin urushi, doka ro'mol qurishi" iborasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda to'liq yoki qisman ekivalentini toppish qiyin shuning uchun o'sha ma'noni beruvchi "to lead a cat and dog life" frazeologik birligini misol qilib olishimiz mumkin. Bu ikki ibora ham tez urushib tez yarashadigan insonlarga ishlatiladi. "yeng shimarib" frazeomasi ingliz tilidagi "roll up one's sleeve" iborasi bilan to'liq ekivalent bo'la oladi. Chunki bu ikki ibora ham libos komponentlarida foydalanyapti va fe'l so'z turkumi ham aynan ikkisida ham bir xil. Lekin yuqoridagi frazeologik birliklarni to'liq, qisman ekivalent deganimiz bilan ularning strukturasi bir biridan farq qiladi. Semantika bir xil lekin ikki tilning gap tuzilishidagi struktura bunday frazeologik birliklarni strukturaviy jihatdan farq qilishiga olib keladi. Ya'ni ingliz tilidagi frazeologik birliklarda asosan fe'li birikmalar ko'proq uchrasa o'zbek tilining frazeologik birliklari ko'pincha otli birikmalar bilan boshlanadi: masalan: yeng shimarmoq – Ot+ Fe'l; roll up one's sleeve – Fe'l + Ot. Ko'rib turganimizdek strukturada so'z turkumlarining o'rni almashgan bo'lishi yoki tilning grammatikasidan kelib chiqib joylashgani bo'lishi mumkin ekan. Semantik jihatdan ikki tildagi frazeologik birliklar bir xil ma'no anglatyapti ya'ni biror bir yumushga astoydil kirishishini ifodalab kelyapti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты / В.Н.Телия. – М.: Изд-во: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288с

2.Шубина В. П. Заметки о полевой организации соматической фразеологии в немецком языке// Функциональный синтаксис немецкого языка. - Челябинск: ЧГПИ, 1977. С. 81 – 89.

3.Tursunova N.F. Turli tizimli tillardagi milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi frazeologizmlar va ularning linguokulturologik tahlili.Andijon, 2021.104

4.<https://idioms.thefreedictionary.com/hat>">hat

5.Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты / В.Н.Телия. – М.: Изд-во: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288с

6.Xidirova.D.R. Frazeologizmlar orqali milliy-madaniy dunyoqarashga oid birliklar (O'zbek va ingliz tillari madaniyatiga oid materiallar asosida)